



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA IJTIMOY SOHA XARAJATLARINI MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Rashidova Gulal Abduvohidovna

Magistratura bosqich talabasi, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali,
e-mail: llhom_s_14@mail.ru

Xamroyev Mexroj Sirojxonovich

PhD, dotsent, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishning zamonaviy tendensiyalari, ularning davlat byudjeti tarkibidagi ulushi va dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ijtimoiy soha xarajatlarning samaradorligini oshirish, ularning manzilligini kuchaytirish, natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish mexanizmlarini joriy etish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, ijtimoiy soha xarajatlari, ijtimoiy himoya, byudjet xarajatlari, ijtimoiy siyosat, moliyalashtirish, byudjet siyosati, ijtimoiy xizmatlar.

Abstract: This article analyzes the modern trends in financing social sector expenditures in the Republic of Uzbekistan, as well as their share and dynamics within the structure of the state budget. Based on the research findings, scientifically grounded proposals and recommendations have been developed to improve the efficiency of social sector expenditures, enhance their targeting, introduce performance-based budgeting mechanisms, and ensure the rational use of financial resources.

Keywords: state budget, social sector expenditures, social protection, budget expenditures, social policy, financing, budget policy, social services.

Абстрактный: В данной статье проанализированы современные тенденции финансирования расходов социальной сферы в Республике Узбекистан, их доля и динамика в структуре государственного бюджета. На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по повышению эффективности расходов социальной сферы, усилению их адресности, внедрению механизмов бюджетирования, ориентированного на результат, а также обеспечению рационального использования финансовых ресурсов.

Ключевые слова: государственный бюджет, расходы социальной сферы, социальная защита, бюджетные расходы, социальная политика, финансирование, бюджетная политика, социальные услуги.

Kirish (Introduction/Vvedeniye)

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va uning manzilligini kuchaytirishdan iborat. Bu jarayonda ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy yordam choralarining manzilligini ta'minlash orqali aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va kambag'allikni qisqartirish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, bolalar nafaqasi va pensiya tizimini rivojlantirish, aholiga turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ishsizlik, kasallik va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganilgan.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish doirasida bir qator dolzarb masalalar o'z yechimini kutmoqda. Jumladan, pensiya va nafaqa to'lovlari miqdorini aholining minimal iste'mol xarajatlari darajasiga mos ravishda shakllantirish, mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga keng jalb etish uchun samarali rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, pensiya va nafaqa

miqdorlarini inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlarini indeksining o'sish sur'atlarini inobatga olgan holda indeksatsiya qilib borish, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlarda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining barqarorligini ta'minlash va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

R.Masgrevy davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy xarajatlarni daromadlarni qayta taqsimlashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, davlat transfert to'lovlari, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari orqali jamiyatda iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi [1].

J.Stiglitz davlatning ijtimoiy soha xarajatlarini inson kapitaliga investitsiya sifatida baholaydi. Unga ko'ra, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari mehnat unumdorligini oshiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi [2].

A.Sen davlatning ijtimoiy xarajatlarini inson rivojlanishining asosiy omili deb hisoblaydi. Uning fikricha, ijtimoiy xizmatlarga sarflar insonlarning imkoniyatlarini kengaytiradi [3].

Britaniyalik iqtisodchi olim Anthony B. Atkinson davlatning ijtimoiy transfertlari daromadlar tengsizligini kamaytirishda eng samarali vositalardan biri ekanligini o'zining fundamental ilmiy tadqiqotlarida asoslab bergan. Xususan, uning fikricha, davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy transfertlar (pensiya, nafaqalar, subsidiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar) aholining kam daromadli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali daromadlar taqsimotidagi nomutanosiblikni sezilarli darajada kamaytiradi [4].

R.Akromov ta'kidlashicha, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, davlat byudjeti mablag'larining adolatli va maqsadli taqsimlanish darajasi hamda ushbu jarayonlarda zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo'llanilish darajasiga bevosita bog'liqdir [5].

A.V.Vahobovning fikricha "bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya o'zining manzilini o'zgartirmoqda, ya'ni u aholining o'zini muayyan bir sharoitda hayot kechirish zarur bo'lgan ne'matlarini eng kam darajasi bilan ta'minlay olmaydigan qatlamlariga maqsadli yo'naltirilgan" [6].

Darhaqiqat, hozirgi bosqich uchun ijtimoiy soha xarajatlari uning manzilligini, to'g'ri talqin etilganligini ko'rsatadi. Chunki, hozirgi kunda ijtimoiy soha xarajatlarning aniq yo'naltirilganligiga, manzilligiga katta e'tibor berilmoqda.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Ushbu ishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyoslama tahlil kabi an'anaviy usullardan foydalaniladi. Xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchilarning byudjetning ijtimoiy soha xarajatlari moliyalashtirishga oid ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilinib, natijalar asosida xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

Byudjet amaliyotida ijtimoiy soha tushunchasi, avvalo, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport hamda fan kabi jamiyatning muhim yo'nalishlarini qamrab oladi. Ushbu sohalar har qanday davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida, shuningdek, milliy iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarmoqlarning rivojlanish darajasi mamlakatning umumiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi aholining turmush sifati, sog'lig'i, bilim darajasi, madaniy saviyasi va umumiy farovonlik ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Shu bois, ijtimoiy soha taraqqiyoti davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy salohiyatini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Davlat byudjeti xarajatlari o'zining iqtisodiy mazmuni, maqsadi va vazifalariga ko'ra turli yo'nalishlar bo'yicha tasniflanadi hamda byudjet mablag'larini ajratish shakllari asosida guruhlanadi. Zamonaviy sharoitda davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlar salmoqli ulushni egallab bormoqda. Bu esa davlatning ijtimoiy siyosati ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Natijada, iqtisodiyotning ayrim ishlab chiqarish va investitsiya yo'nalishlariga nisbatan ijtimoiy xarajatlarning ulushi yuqori darajada shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarga ega bo'lib, u aholini ijtimoiy himoya qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda fuqarolarning munosib turmush darajasini ta'minlashning muhim moliyaviy manbai hisoblanadi. Davlat byudjeti orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va boshqa ijtimoiy xizmatlar moliyalashtiriladi, bu esa o'z navbatida nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, balki milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, davlat byudjeti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi.


Ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi mamlakat taraqqiyotining boshqa yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasida bevosita va mutanosib bog'liqlik mavjud. Shu sababli, ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratmaslik yoki uning manfaatlariga zid ravishda faoliyat yuritish mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki aynan ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi aholining turmush sifati, inson kapitalining shakllanishi hamda jamiyatning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy sohani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Ijtimoiy sohaning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uni moliyalashtirish masalasida faqat bozor mexanizmlariga tayanib qolish yetarli darajada samarali natija bermasligi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayrim tarmoqlar o'zini o'zi moliyalashtirish tamoyiliga asoslanib faoliyat yuritishi mumkin bo'lsa-da, ijtimoiy soha bunday imkoniyatlarga har doim ham ega emas. Chunki ushbu sohada ko'rsatiladigan xizmatlar bevosita ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu bois, ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat byudjeti xarajatlari muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti orqali ajratiladigan mablag'lar ijtimoiy xizmatlarning uzluksizligini ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi.

Hozirgi davrda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, uning manzilligini kuchaytirish hamda ijtimoiy yordamning faol mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, avvalo, yordamga muhtoj qatlamlarni aniq aniqlash, resurslarni maqsadli yo'naltirish va fuqarolarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, ijtimoiy siyosatda passiv qo'llab-quvvatlash choralaridan faol va rag'batlantiruvchi mexanizmlarga o'tish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar iqtisodiyotning barqarorligi va mutanosib rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada mustahkamlashga qaratildi. Jamiyat hayotidagi yangilanish jarayonlari ijtimoiy himoya sohasida ham tizimli o'zgarishlarni taqozo etdi. Natijada, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimining manzilligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va faol mehnat bozoriga integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish muhim ustuvor yo'nalish sifatida shakllandi.

Mamlakatimizdagi bunday xarajatlarning ko'lamini (darajasi) xususida 1-rasm ma'lumotlari muayyan tasavvur hosil qilishga yordam beradi.



1-rasm. 2019-2025-yillarda ijtimoiy soha xarajatlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlardagi o'rni [7]

1-rasm ma'lumotlarining ko'rsatishicha, mamlakatimiz Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari yuqori salmoqqa ega bo'lib, ularning ulushi tahlil qilinayotgan 2019-2025-yillar davomida 48,9 foizdan (2021-yil) 53,8 foizgacha (2019-yil) tebrangan. Xususan, mazkur ko'rsatkichning butun davr davomida asosan 49-52 foiz oralig'ida saqlanib qolayotganligi davlat byudjetining ijtimoiy yo'naltirilganligini hamda aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarini moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilayotganligini ko'rsatuvchi muhim dalil hisoblanadi. Ayniqsa, 2023-2025-yillarda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 50,4 foiz, 49,0 foiz va 51,7 foizni tashkil etganligi ijtimoiy sohani moliyalashtirish barqaror darajada davom etayotganligini ifodalaydi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi mutlaq miqdorda sezilarli darajada oshib borgan. Jumladan, 2019-yilda ijtimoiy soha xarajatlari 63 542,3 mld so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 178 200 mld so'mga yetib, qariyb 2,8 martaga oshgan. Mazkur davrda davlat byudjetining umumiy xarajatlari esa 118 008,6 mld so'mdan 344 600 mld so'mga yetib, qariyb 2,9 martaga ko'paygan. Bu holat davlat tomonidan ijtimoiy sohani moliyalashtirish hajmi yildan-yilga ortib borayotganligini va ushbu soha davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.


Bundan tashqari, ijtimoiy soha xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan 2025-yilda 9,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, bu holat ijtimoiy xarajatlarning qisqarishi bilan emas, balki mamlakat yalpi ichki mahsulotining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi. Ya'ni, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar mutlaq miqdorda ortib borayotgan bo'lsa-da, iqtisodiyotning umumiy hajmi yanada tezroq kengayganligi natijasida ularning YAIMdagi nisbiy ulushi biroz kamaygan.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi va ularning barqaror o'sib borishi hamda yuqori ulushda saqlanib qolishi mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganligini ifodalaydi.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar mamlakatimizda davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilayotgan xarajatlarning umumiy hajmi va ularning iqtisodiyotdagi o'rni to'g'risida muhim umumlashtiruvchi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, tahlil qilinayotgan 2019-2025-yillar davomida ijtimoiy soha xarajatlari mutlak miqdorda sezilarli darajada oshib, 63 542,3 mlrd so'mdan 178 200 mlrd so'mgacha yetganligi ushbu yo'nalishdagi moliyalashtirish hajmi yildan-yilga kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy soha xarajatlarning jami davlat byudjeti xarajatlardagi ulushi ham yuqori darajada saqlanib, asosan 49-52 foiz oraliqda shakllanganligi davlat moliya siyosatida ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq, mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag'larning umumiy miqdori va ulushini ifodalash orqali ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholash imkonini bersa-da, ushbu mablag'larning qaysi aniq yo'nalishlar, tarmoqlar va maqsadlar uchun sarflanayotganligini to'liq ochib bera olmaydi. Xususan, ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ta'lim tizimini moliyalashtirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, pensiya va nafaqalar to'lash, madaniyat va sport sohalarini qo'llab-quvvatlash kabi muhim yo'nalishlar mavjud bo'lib, ularning har biri alohida iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shu sababli, davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini chuqurroq baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash hamda moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanish darajasini tahlil qilish uchun ijtimoiy soha xarajatlarning tarkibi, tuzilmasi va asosiy yo'nalishlari kesimida batafsil tahlil o'tkazish zarur hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning ijtimoiy siyosatini yanada takomillashtirish va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.



2-rasm. 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidagi ijtimoiy soha xarajatlarning o'zgarishi [7], mlrd. so'm

Ma'lumki, tarkib jihatidan byudjetning ijtimoiy soha xarajatlarni quyidagilarga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim tizimi xarajatlari;
- sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari;
- madaniyat va sport xarajatlari;
- fan xarajatlari.

Bu soha xarajatlarning tarkibiy tuzilmasi deyilganda, odatda, ana shu guruhga kiruvchi har bir (alohida-alohida tarzda olingan xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport hamda fan) xarajatlarning ijtimoiy soha xarajatlari umumiy summasiga nisbat tushuniladi. 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan bu masalalar xususida ba'zi bir xulosalar

chiqarish va byudjetning ijtimoiy soha xarajatlarga tegishli bo'lgan ayrim tendensiyalarini ham aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, keyingi yillarda mamlakatimizda davlat byudjetining ijtimoiy soha xarajatlari asosiy qismini ta'lim tizimi xarajatlari tashkil etadi. Ularning salmog'i yillar oralig'ida ijtimoiy soha jami xarajatlarning 68-70 foiziga teng bo'lmoqda. Salmog' jihatidan sog'liqni saqlash xarajatlari ularning orasida navbatdagi o'rinni egallab, 25-26 foizni tapkil etmoqda. Davlat byudjetining ijtimoiy soha xarajatlari ma'lum bir qismi madaniyat va sport hamda fanni moliya-lashtirishga qaratilgan bo'lib, shu yillarda ularning salmog'i, mos ravishda, 2,5 foizdan 4,1 foizgacha va 1,1 foizdan 1,3 foizgacha tebrangan.

Shu o'rinda ijtimoiy soha xarajatlarning tarkibini tashkil etuvchilarning har biriga tegishli bo'lgan raqamlarni byudjetning umumiy xarajatlarga nisbatan taqqoslanishi ham ma'lum bir qiziqish uyg'otadi. Masalaga shu tarzda yondashiladigan bo'lsa, hozirda mamlakatimiz byudjeti umumiy xarajatlarning deyarli 1/3 qismi ta'lim tizimi va 1/10 qismi sog'liqni saqlash sohalari yo'naltirilayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz Davlat byudjetidan sarflanayotgan har yuz so'mning qariyb 33 so'mi maorifga va 10 so'mi sog'liqni saqlashga yo'naltirilmog'ga, demakdir.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Ijtimoiy soha xarajatlarning samaradorligini oshirish uchun an'anaviy "mablag' ajratish" yondashuvidan "natijaga erishish" yondashuviga bosqichma-bosqich o'tish zarur. Bunda har bir yo'nalish bo'yicha ajratilayotgan mablag'lar aniq ijtimoiy natijalar bilan bog'lanishi lozim. Masalan, ta'lim sohasida - o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlari va qamrov darajasi, sog'liqni saqlashda - kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari, ijtimoiy himoyada - kambag'allik darajasi va bandlik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlaydi.

2. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy soha xarajatlarning asosiy qismi ta'lim va sog'liqni saqlashga to'g'ri keladi. Biroq uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar sohasiga ajratilayotgan mablag'lar ulushini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu raqobatbardosh iqtisodiyot va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

3. Ijtimoiy soha xarajatlari hajmi katta bo'lganligi sababli ularning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash muhimdir. Ochiq byudjet platformalarini rivojlantirish, jamoatchilik eshituvlari va mustaqil audit tizimini kuchaytirish mablag'larning samarali sarflanishiga xizmat qiladi. Shaffoflik korruptsiya xavflarini kamaytiradi va aholi ishonchini oshiradi.

4. Ijtimoiy soha xarajatlarni baholashda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki ijtimoiy natijalar ham hisobga olinishi zarur. "Xarajat-natija" (cost-effectiveness) va "xarajat-foйда" (cost-benefit) tahlillarini joriy etish orqali har bir yo'nalish bo'yicha mablag'larning qay darajada ijtimoiy samara berayotgani aniqlanishi mumkin. Bu kelgusida resurslarni yanada samarali taqsimlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Musgrave R. A., Musgrave R. A. The theory of public finance: A study in public economy. – New York : McGraw-Hill, 1959. – T. 658.
2. Stiglitz J. E., Rosengard J. K. Economics of the public sector: Fourth international student edition. – WW Norton & Company, 2015.
3. Sen A. Freedom //Development, Oxford University Press, Oxford. – 1999.
4. Atkinson A. B. Inequality: What can be done? //Inequality. – Harvard University Press, 2015.
5. Akromov R.T. Ijtimoiy infratuzilma: muammolar va yechimlar. Ijtimoiy tadqiqotlar, 2020, №3.
6. Vahobov A. Bozor munosabatlarga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. T.: Moliya, 2002- B.45
7. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari